



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY IJODINING O'RNI.

Toshpulatova Ruhshona Axmat qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Qahharova Malika Lutfulla qizi

Annotatsiya: *Axloqiy tarbiya – shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu maqolada bolalarda axloqiy his-tuyg'ularini, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash, shaxsdagi axloqiy fazilatlar hamda xulq madaniyatining shakllanishi, bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning axloqiy tarbiya haqidagi hikmatli so'zlari, sharq allomalarining fikrlari to'g'risida mulohazalar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *axloqiy fazilatlar, komil inson, Alisher Navoiy, axloq, bolalar, ta'lim-tarbiya.*

Аннотация: *нравственное воспитание-важная составляющая всестороннего развития личности. В данной статье приводятся рассуждения о воспитании у детей нравственных чувств, представлений и поведения, о нравственных качествах личности и формировании культуры поведения, мудрые слова великого мыслителя Алишера Навои о нравственном воспитании, мысли ученых шарг.*

Ключевые слова: *нравственные добродетели, совершенный человек, Алишер Навои, мораль, дети, воспитание.*

Abstract: *Moral education is an important component of the comprehensive development of the individual. This article presents reflections on the upbringing of moral feelings, perceptions and behavior in children, the formation of moral qualities and a culture of behavior in a person, the wise words of the great.*

Keywords: *moral qualities, perfect man, Alisher Navoi, morality, children, education.*

Kun sayin rivojlanib, shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi davrda yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni har tomonlama rivojlangan, yuksak ma'naviyatli va kasbiy ko'nikmalarga ega shaxs sifatida tarbiyalash uchun O'zbekistonda keng islohatlar olib borilmoqda. Jumladan, tarbiya va ta'lim uyg'unligidir. Bu ta'lim sifati bilan birga, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va tarbiyalashni birgalikda amalga oshirilayotganligini keltirish mumkin. Jamiyatdagi har bir inson ma'lum bir sohada muvaffaqiyatga erishishda uning tarbiyasi, axloqiy fazilatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida bir shaklidir. Axloqiy fazilatlar – insonning jamiyatda yaxshi yashashi, ma'naviy o'sishi va ijobiy xarakterini shakllantiruvchi sifatlar majmuyidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ongiga axloqiy fazilatlarni singdirishda Alisher



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Navoiyning bolalik hayoti yaqqol misol bo‘la oladi. Uning halollik, sadoqat, vatanparvarlik kabi sifatlarini maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlantirishda Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega dostonlaridagi qahramonlarni, yoshlik pallalaridagi ishtiyoqi va ilmga chanqoqligini bolalarning ko‘z o‘ngida jonlantirish orqali ulug‘ zotning yetuk fazilatlarini kelajak bunyodkorlariga namuna sifatida keltirishimiz maqsadga muvofiq. Alisher Navoiy 3-4 yoshlaridan she‘r yod olgani, 7-8 yoshlaridan esa, she‘r mashq qila boshlagani barchamizga ma‘lum. Hozirgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalar garchi mustaqil ijod qila olmasa ham 4-5 yoshdan she‘rlar yod olib, Navoiy izidan tashlanayotgan kichik qadamlar ekanligiga amin bo‘lamiz. Navoiy o‘z davrida ko‘p qiyinchilik va tasodiflarga duch kelganligi odob va muomalasi bilan mashhur tarixchi va adiblarni mehri qozongan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, 6 yoshida Yazd cho‘lida zamonasining mashhur tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiyga duch kelgani, odob va muomalasi bilan buyuk tarixchi mehrini qozonib, duosini olgani, 12 yoshida bo‘lsa, o‘z she‘rlari bilan eng mashhur shoir 90 yoshli Mavlono Lutfiyni hayratga solganini odobga ega bo‘lishning inson hayotidagi qandalik rolini ko‘rsatib beradi[1]. Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino va boshqa ko‘plab allomalar axloqni inson kamolotining asosi deb bilib, uni aql, ilm va tarbiya bilan bog‘lashgan[2]. Ular ezgulik, halollik, kamtarlik va ilm o‘rganishni yuksak axloqiy fazilat deb hisoblagan. Bolalarda bunday sifatlarni shakllantirish axloqlilik va komillikning eng muhim mezoni hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda bolaning ma‘naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Alisher Navoiyning nafaqat bolalik damlari, balki badiiy ijodi ham axloqiy tarbiyaning bitmas-tuganmas xazinasini bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarida odamiylik, samimiylilik, adolat, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi sharqona fazilatlar ulug‘lanadi. Masalan, “Mahbub ul-qulub” va “Xamsa” dostoni, yosh avlodda yuksak ma‘naviyat, do‘stlik va hamjihatlikni shakllantirishda bugun ham o‘zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. “Xamsa” dostonlarini yosh xususiyatiga mos bosqichma-bosqich o‘rgatish kelajak bunyodkorlarda axloqiy fazilatlar, milliy qadriyatlar, gender tengligi, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmatni shakllantiradi. Misol uchun, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dagi qahramonlar timsolida fidoyilik, vafodorlik, adolat, ilmga bo‘lgan hurmat singari fazilatlar bolaga obraz, voqea va syujet orqali asta-sekin singdiriladi. Tasavvufiy qarashlari orqali Navoiy bolalarga nafsni tiyish, dunyoparastlikdan voz kechish, faqirlikni (Allohdan o‘zgaga ehtiyoj bo‘lmaslik) va odob-axloq kabi fazilatlarini o‘rgatishni targ‘ib etadi. Bu yoshlarni ma‘naviy poklik va mas‘uliyat sari yo‘naltiruvchi g‘oyaviy asoslar yig‘indisi bo‘lib xizmat qiladi. Navoiyning ruboiy va qit‘alari qisqa, mazmunan chuqur ma‘noga ega ekanligi, ularni mutolaa qilishda halollik, vijdon, sabr-toqat, mehr-oqibat singari xislatlar mujassamlashganligi tufayli o‘sib kelayotgan yosh avlodlarga tushuntirish, o‘rgatish juda qulay va osondir. Navoiy ijodidagi dostonlar orqali bolalar qahramonlarning xatti-harakatini baholashni, o‘z axloqiy pozitsiyasini shakllantirishni, tanqidiy fikrlash va ma‘naviy o‘zlikni anglashini rivojlantirishga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Sharq allomasi Ibn Sino: „Axloqiy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tarbiyada aql va hissiyotlarning birligiga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, jisimiy tarbiya bilan bir qatorda ruhiy va axloqiy tarbiya ham muhimdir”[2]. Navoiy asarlarining yana bir muhim jihati shundaki, hilmning ma’naviy – axloqiy mazmuni, ayniqsa, tasavvufga bag‘ishlangan “Nasoyim-ul muhabbat”da shaxslar hayoti orqali hilmlilik, tavoze’, sabr, kechirimlilik kabi fazilatlarni ideal sifatida tasvirlanganligi bilan ajralib turadi. Navoiy Sufi dunyoqarashi asosida hilmni (yumshoqlik, kechirimlilik) komil insonning markaziy axloqiy fazilati sifatida ko‘radi. U Jomiy an’ansi asosida komil inson konsepsiyasini rivojlantirib, hilmni nafsni tiyish, g‘azabni yutish, odamlarni Alloh uchun kechirish sifatida talqin etuvchi Sufi axloqini badiiy shaklda namoyon qiladi. Bolalarga bunday fazilatlarni yoshligidan o‘rgatib, tarbiyalab borish komil inson qiyofasini yaratishning eng samarali usulidir. Alisher Navoiyning merosi bugungi nafaqat o‘zbeklar orasida, balki jahon miqyosida ham faol o‘rganilayotgan, aktual mavzu hisoblanadi. Masalan, Qozog‘istonda Navoiy asarlari qozog‘ tiliga tarjima qilinib, “Xamsa” dostonlari (“Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” va boshqalar) muntazam chop etilib, turkiy xalqlar madaniy aloqalarining tayanchi sifatida baholanib kelinmoqda. Turkiyada Navoiy asarlarini o‘rganish alohida yo‘nalish bo‘lib shakllangan. O‘zbekistonda esa, mustaqillik davrida Navoiy shaxsini yangi badiiy talqinlarda – Oybekning “Navoiy” romani, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani kabi asarlarda qayta yaratilishi, bolalarga tarixiy o‘tmishni erkinroq ochish imkoniyatlari bilan bolalarda vatanga bo‘lgan muhabbatni yana bir karra oshirishimiz mumkin. Navoiyning hayoti va ijodidagi tarbiyaviy qarashlarini bolalarga o‘rgatish, tanishtirish tarbiya konsepsiyalarining nazariy manbalaridan biri sifatida ishlatilishi ham tarbiyada o‘z samarasini ko‘ratadi. Navoiy o‘zbek adabiy tilini ilmiy va badiiy darajada yuksaltirgan shaxs sifatida baholanib, asarlari orqali muruvvatli inson, saxovatpeshalik kabi fazilatlarni yoshlar ma’naviyatiga singdirgan shaxs sifatida e’zozlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlarini o‘rganish hozirgi kunda ijtimoiy-madaniy hayotda yoshlarni vatanparvarlik va ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Undagi adolat va insof, oliyjanoblik va do‘stlik kabi insoniy tuyg‘ularni yuksak san’at darajasi sifatida tarannum etadi. Shoir o‘z ijodida hukmdorlardan tortib oddiy xalqqa qadar adolatli bo‘lishni, insof bilan ish tutish kabi g‘oyalarni ilgari surganligiga guvoh bo‘lamiz. Xalqimiz ta’kidlaganidek, “Yaxshi axloq – mingta boylikdan afzal”dir. Shu sababli axloqqa oid allomalarning hikmatlari, tarbiyaviy qarashlarini tarbiya va ta’lim jarayonida keng isloh etish maqsadga muvofiqdir. Ixcham va ta’sirchan shaklga ega bo‘lgan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan Navoiy hikmatlari orqali yosh avlodlarga saxovat, halollik kabi insoniy fazilatlarni yuksaltirish mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Adabiyot” Ahmedov S, Qosimov B. „Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2020.
2. Arxiv.uz.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. <http://oliygoh.uz>
4. <https://cyberleninka.ru>

